

AXLOQIY TARBIYA ME'YORLARI

Qurbonova Zebiniso

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
qurbonova@terdupi.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axloqiy me'yor kategoriyalari haqida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari maqolada muallifning axloqiy tarbiyaga oid shaxsiy fikrlari keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *axloq, insoniylik, rostgo'ylik, halollik, hayo, shirinso'zlik, xushfe'llilik, shirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik.*

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvim ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri — qanday yashamoq kerak, ikkinchisi — nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir. Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, awalo, ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero, qush inida ko'rganini qiladi: ota-ona oilada yuksak axloq namunasi ko'rsatishi lozim. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko'p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo'lur edi. Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ulaming bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bola qizg'anchilik, g'irromlik qilmaslikka,

halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Inson axloqiy tarbiyasida televideniye, radio, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi — san'at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san'atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo'lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko'rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo'ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Zarbulmasal” singari bunday mumtoz asarlar an'anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo'lib qolajak. Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li, bu — namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Maktabda va oliy o'quv yurtida muallimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, to kichik holatlar xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo'ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir. Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniye keltirish mumkin. U deyarli barcha san'at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko'rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan muntazam ko'rsatuvlar ham berib boriladi.

Axloqiy tarbiya aslida axloqiy madaniyatning o'zagini tashkil etadi, biz ko'rib o'tgan muomala odobi, etiket, kasbiy odob singari axloqiy xatti-harakatlar uchun asos vazifasini o'taydi. Biroq u o'zini yetarli namoyon qilishi uchun ta'lim bilan doimiy aloqada bo'lishi shart. Shuning uchun biz ko'pincha “ta'lim-tarbiya” degan qo'shaloq atamani qo'llaymiz. Ta'lim-tarbiyada tarbiyalanuvchiga bola deb emas, bo'lajak komil inson deb qarash muhim. Shunday qilib, axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O'shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan.

Inson hayotida axloqiy me'yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda muayyan axloqiy fazilatlarni aks ettirgan tushunchalar va tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy, lekin keng

tarqalgan shakli sifatida ro'yobga chiqadi. Halollik, rostgo'ylik, hayolilik, insoflilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me yorlar ayniqsa diqqatga sazovor.

Halollik. Halollik vijdon, adolat va burch kabi axloqshunosiik mezoniy tushunchalari bilan bog'liq, insonning o'zgaga munosabati o'ziga munosabatidek sof, pokiza bo'lishini talab qiladigan axloqiy me'yordir. Dastawal u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning yemak-ichmagi, jinsiy va iqtisodiy xatti-harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar'iy me'yor bo'lib amal qilgan, uning ziddi harom diniy nuqtayi nazardan salbiy hisoblangan xatti-harakatlarga nisbatan qo'llanilgan. Hozirgi kunda ixtisoslashgan mehnat taqsimotining takomillashuvi, ilm-fan taraqqiyotining yuksalishi natijasida biz kasbiy halollik, ilmiy halollik, iqtisodiy halollik v.b. haqida gapirishimiz mumkin. Insoniyat jamiyatida haromlik yoxud nopoklikning halollikka nisbatan kam uchramasligi doimo axloqshunoslarni tashvishga solib kelgan. Chunonchi, imom G'azzoliyning harom yeyish haqida to'xtalib, mana bunday deyishi bejiz emas: “..Xohi zulm bilan olingan bo'lsin (kuch ishlatib, xoinona undirish va bosqinchilik-o'g'rilik yo'llari bilan olish); xoh zavq va o'yin yo'li bilan olinsin (qimor va shunga o'xshash narsalar bilan bo'ganiday); xoh hiyla va nayrang yo'llari bilan olinsin (tovlamachilik va aldanchilik, tarozidan urish kabi); o'z moli va boyligini harom ishlarga (ichkilikbozlik, qimor, fohishabozlik) hammasi harom yeyishga kiradi”. Afsuski, G'azzoliy sanab o'tgan holatlarni atrofimizda ko'p ko'ramiz. Chunki nopok yo'l tutish oson, lekin halollikka erishish qiyin. Buning sababi shundaki. halollikning mavjudligi fidoyilik axloqiy tamoyili va rostgo'ylik axloqiy me'yori bilan shartlanadi; doimo halollik qilishi yoki halol yashashi uchun kishi albatta nimalardandir kechishi, kimlargadir qarshi borishi, faqat rost gapirishi, so'z bilan ish birligiga erishishi kerak. Shu bois halol inson jamoatchilik o'rtasida obro'ga ega, hurmatga sazovor bo'ladi. Qaysi jamiyatda halol fuqarolar ko'paysa, o'sha yerda baxt va farovonlik hukm suradi. Rostgo'ylik. Rostgo'ylik yoki to'g'ri so'zlilik insonning haqiqatga intilishi bilan bog'liq, haqiqat esa doimo sinfiylik-tabaqaviylik, partiyaviylik-mafkuraviylik va tarixiylik-davriylikdan yuqori turadi.

Haqiqatning ifodaviy shakllaridan biri rostgo'ylikdir. Demak, rostgo'ylik insonning keyinchalik kasb etgan — o'z ongiga, ruhiga singdirgan, ijtimoiy-hayotiy, davriy-tajribaviy xususiyat emas, balki uning mohiyatida berilgan fazilat. Masalan yaqinda tili chiqqan yosh go'dakni olaylik. U nima desangiz ishonadi, o'zi nimaiki desa - rost gapiradi (“Aldagani bola yaxshi” degan maqolni eslang). Go'dakning soddaligidan, ishonuvchanligidan, to'g'risini aytishidan biz - kattalar kulamiz; lekin haqiqat ustidan, rostgo'ylik ustidan kulayotganimizni o'ylab ham ko'rmaymiz. Go'dak kattarib, “aqli kirib” borgani sari atrof-muhitda yolg'on mavjud ekanligini, rost gapirsa yo kulgi bo'lishi, yo jazo olishi mumkinligini anglab yetadi va asta-sekin yolg'onga

o'rgana boshlaydi, dastlabki maishiy yolg'on ijtimoiy bosqichga ko'tariladi. Endi xususiy yoki guruhiy manfaatdorlikni ta'minlovchi yolg'on atrofdagi voqelikning hamrohiga aylanadi. Insonni bu yo'ldan faqat yuksak ma'naviylik, birinchi galda axloqiy tarbiya qutqaradi. Ezgulik, nomus, or, qadrqimmat, insonparvarlik, halollik, insof nima ekanini tushunib yetgan kishigina rostgo'y bo'la oladi. Rostgo'ylik oson emas. U insondan sabr-toqat, matonat va jasoratni talab qiladi, rostgo'y inson qo'rquvdan forig' bo'ladi, har qanday holatda ham vijdoniga qarshi bormaydi: kimlamingdir ko'ziga qarab, yaqinlarini yoki hamkasabalarini xafa qilishdan, o'z moddiy manfaatdorligiga zarar yetkazishdan cho'chimaydi. To'g'ri, bunday munosabat tufayli rostgo'y inson aziyat chekishi, ta'na-dashnomlarga qolishi mumkin. Lekin bularning hammasi bir odamga yoki muayyan guruhga voqelikni asl holida yetgazganligidan, ulami noto'g'ri yo'lga solib yubormaganligidan qalbdan paydo bo'lgan qoniqish hissi, xotijamlik va orom tufayli yuvilib ketadi, ichki bir quvonch unga baland ruh bag'ishlaydi. Yolg'onga kelsak, uni ko'pchilik donishmandlar eng katta yovuzliklar sirasiga kiritishgan. Chunki, yolg'onchi kishilar bo'lgan yoki bo'layotgan voqea-hodisalar haqida noto'g'ri axborot berib, odamlarni adashtiradilar, o'zlari ham adashadilar. Kimningdir yoki kimlarningdir yolg'oni tufayli odamlar ishonchga loyiq narsalarga ishonish, ishonchsizlikka sazovor narsalarga ishonmaslik imkonidan mahrum bo'ldilar va turmushda, hatto hayot-mamot masalalarida noto'g'ri qarorlar qabul qiladilar, bu narsa esa fojiaga olib keladi. Yolg'onchilik qilgan odam ham "quruq" qolmaydi, u ham o'z "fojiaviy ulush"iga ega bo'ladi, unga bundan buyon nomussiz, kazzob, ishonib bo'lmaydigan odam sifatida munosabat qilinadi, bu bir tomondan, ikkinchi tomondan, o'zi ham zarar ko'radi. Bunga o'zbek xalq ertaklaridan biridagi ikki marta yarim kechada "Uyim yonib ketdi!" deb yolg'ondan faryod ko'tarib, hammani — sog' u kasalni, qariyu yoshni oyoqqa turg'izib ovora qilgan, uchinchi marta haqiqatan ham uyiga o't tushganida ko'targan dod-voyiga hech kim e'tibor qilmagan yolg'onchining qismati misol bo'la oladi. O'z qishloqdoshlarining ishonchini yo'qotgan ertak qahramoni faqat o'zgalarnigina emas, o'zini ham aldadi: uchinchi chorloviga hech kim yordamga kelmadi, uyi tag-tugi bilan yonib ketdi, boshpanasiz qoldi. Har qanday yolg'onchining peshonasida ana shunday "boshpanasiz", panohsiz qolish qismati bor. Zero, har bir inson uchun o'zgalarning unga bo'lgan ishonchi eng qoim panohdir; o'zgalarning ishonchi insonning o'ziga ishonchini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Hayolilik. Bu me'yor xulqiy go'zallikning asosiy belgilaridan hisoblanadi. U, garchand, bir qarashda, uyat hissi bilan o'xshash bo'lsada, aslida o'zini ko'proq andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon qiladi, unda axloqiy mohiyat estetik xususiyat — nafosat bilan uyg'unlashib ketadi. Hayodan odatda, inson qizaradi, bu qizarish, ayniqsa xotin-qizlarda ichki go'zallikning yuzga tepchib chiqishiga sabab

bo'ladi va alohida bir nafislikni, mayinlikni vujudga keltiradi. Insonning o'zi sodir etgan yoki boshqalar vositasida amalga oshirilgan axloqiylikka zid xatti-harakatlardan noqulay vaziyatga tushishi, o'ng'aysizlanishi, mulzam bo'lishi uyat hissida ham mavjud. Lekin bu holatlar uyatda ijtimoiylik kasb etgan bo'ladi, shu sababli ular xatti-harakat sodir qilingandan so'ng ham davom etadi va ko'p hollarda vijdon azobiga aylanadi. Hayotda esa mazkur holatlar sof ma'naviy tabiatga ega va vaqt doirasida cheklangan bo'lib, ular xatti-harakat sodir etilayotgan paytdagina yuzaga chiqadi. Sharq donishmandlari, xususan, Abu Lays as-Samarqandiy, Mahmud az-Zamaxshariy G'azzoliy kabi mutafakkirlari, hayoni yuksak axloqiy qadriyat sifatida olib qaraganlar, uni ikkiga — odamlar oldidagi hayoga va Alloh oldidagi hayoga ajratganlar hamda nomusning bir ko'rinishi deb ta'riflaganlar. Darhaqiqat, hayolilik kishining ma'naviyatli, ma'rifatli, nomusli, ochiq ko'ngilli ekanini anglatadi, uning ziddi behayolik esa, aksincha, ma'naviyatsizlik, nopoklikka moyillik, qalban qattiqlik kabi illatlar bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda hayo alohida ahamiyatga ega. Turli sivilizatsiyalarning o'zaro aloqalari, ba'zan esa omuxtalashuvi, urbanizatsiya, modaparastlik singari zamonaviy hodisalar o'zbek oilasidagi a'anaviy hayolilikka ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatayotir, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarning o'zini tutishida, muomalasida, kiyinishida bu ta'sirni yaqqol sezish mumkin. Shu sababli oiladagi va maktabdagi tarbiyada hayolilik xulqiy go'zallik, nazokat; behayolik esa xulqiy xunuklik va qo'pollik ekanini uqdirish shaxs erkinligining doimo o'zgarlar oldida mas'uliyat bilan bog'liqligini izchil ravishda tushuntirib borish muhim vazifalardan biri. Insoflilik. Aflotun haqida gap borganida, uning adolatni davlatga xos fazilat, degan fikrini keltirib o'tgan edik. Darhaqiqat, adolat mohiyatan davlatning fuqaroga, jamiyatning shaxsga nisbatan munosabati tarzida namoyon bo'ladi. Bordiyu, o'zaro adolatli munosabatlar haqida gap ketsa, unda odatda yuksak martabadagi tarixiy shaxsning quyi martabadagi shaxsga munosabati nazarda tutiladi. Insof esa ana shu adolatning tor qamrovli xususiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. U fuqarolar, jamiyat a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlar me'yori. Insoflilik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog'liq, ma'lum ma'noda halollikka o'xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki, halollik o'z haqi va haqqini, ya'ni moddiy va ma'naviy huquqini o'zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg'a tashlangan holatdir: unda kishi o'z halol haqi va haqqidan o'zganing hisobiga kechadi; "o'zga"ning sharoiti o'zinikidan nihoyatda og'ir va yomon ekanini hisobga olib, o'z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o'zgaga beradi, muruvvat ko'rsatadi. Xushfe'llilik, shirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosliqlik singari axloqiy xatti-harakatlar me'yoriylik nuqtayi nazaridan g'oyat muhim. Chunki, har bir

jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfel, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'ta rin k i kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi. Xushfe'llilik, shirinsuxanlilik qay darajadadir ko'proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o'z g'azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so'zlagisi, biror-bir gap bilan o'zini ko'rsatgisi kelib qolganda o'sha xohish-ixtiyorni to'xtata olishi kuchli irodani talab qiladi. Shu bois muomalada bosiq, kamtarin, "yetti o'lchab bir kesish" tamoyili asosida ish ko'rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Sher. Axloqshunoslik. T., O'AJBNT — "Yangi asr avlodi", 2003,15-20-b.
2. Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. М., «Советская Россия», 1989. С. 131 - 188.
3. Загрытдинова Ф.В. Некоторые проблемы биомедицинской этики. Т., "Университет", 2005. С. 5 — 40.
4. Курбанова, З. (2023). Mahmud az Zamaxshariyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari . *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 81–86. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23493>
5. Umida Yakubova. (2023). SOCIAL PEDAGOGICAL COMPETENCE AS THE BASIS OF THE FUTURE TEACHER'S ACTIVITY. Zeta Repository, 4(04), 1311–1319. Retrieved from <https://zetarepo.com/index.php/zr/article/view/397>
6. Sharifovna, Y. U. (2022). Professional Qualities of a Social Educator. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 1(5), 171-175.
7. Yakubova, U. (2023). SOCIAL PEDAGOGICAL COMPETENCE AS THE BASIS OF THE FUTURE TEACHER'S ACTIVITY. Zeta Repository, 4(04), 1311-1319.

8. Sattorova Dilshoda Djavliyevna. (2022). PRACTICAL USE OF INNOVATIVE KNOWLEDGE DEVELOPED IN TRAINING COURSES. *European Scholar Journal*, 3(6), 129-132. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2407>

9. Sattorova, D. (2023). USE OF COMPUTER PROGRAMS IN PHYSICS LESSONS. *Академические исследования в современной науке*, 2(6), 64-69.

10. 1 Турамурастов, У. (2022, April). ДУАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ ПСИХОЛОГОВ ДЛЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 63-66).

11. Turamuratov, U. (2022). Modern technologies in the activity of a teacher-psychologist. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(2), 375-379.

12. ТУРАМУРАТОВ, У., & КОДИРЖОН, А. (2018). ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТРЕНЕРА, КАК ФАКТОР, ВЛИЯЮЩИЙ НА УСПЕШНОСТЬ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.

13. Zebiniso Kurbonova. (2023). USING THE TEACHING OF MAHMUD AZ ZAMAXHARI IN IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 121-123. Retrieved from <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2562>

14. Z. Kurbonova. Scientific and theoretical foundations of studying the pedagogical heritage of Mahmud az-Zamahshari MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON "MODERN APPROACH IN TEACHING EXACT AND NATURAL SCIENCES: PROBLEMS AND SOLUTIONS" (May 30, 2023)